ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Xo‘jamberdiyeva Go‘zalxon Zafarjon qizi

Qo‘qon davlat universiteti 10.00.01 – O‘zbek tili mutaxassisligi

3 – kurs tayanch doktoranti

SAIDA ZUNNUNOVA SHERLARINING FONOPOETIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada Saida Zunnunova she’rlarining fonopoetik xususiyatlari haqida so’z boradi. She’riy misralarda qo’llanilgan evfoniya, assonans, alliteratsiya kabi hodisalar fonopoetik tahlilga tortiladi.

Kalit so’zlar: lingvopoetika, fonopoetika, evfoniya, alliteratsiya, assonans.

Ma’lumki, “badiiy g’oya va fikr, obraz va obrazlilik, individual uslub va badiiy mahorat til vositasida yuzaga chiqadi”[4:4]. Shu ma’noda lingvopoetika masalalarini nazariy va amaliy, mazmuniy va shakliy struktura sifatida ma’lum bir tizimga solish, tadqiqot metodikasi - metodlari va metodologiyasini muayyanlashtirish, usul va vositalari tadrijiy takomilini yaxlit o’rganish va tizimlashtirish, muayyan ijodkor asarlarida umumiy lingvopoetik asoslaming xususiy, lisoniy imkoniyatlaming badiiy matnda individual voqelanish qonuniyatlari va omillarini ijodkor-til-badiiyat mushtarakligi tamoyili asosida tadqiq qilish lingvopoetik yondashuvning markaziy muammolari hisoblanadi. “Badiiy asaming bosh unsuri so’z, umuman til”[6:124] ekan, ana shu asarning chinakam san’at darajasiga ko’tarila olishida uning tili, muallifning til vositalarini qay darajada qo’llay olishi asosiy omildir. Badiiy asar lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish bugungi kunda o’zbek tilshunosligidagi dolzarb muammolardan biridir. Lingvopoetika-lingvistikaning badiiy asar tilini o’rganuvchi yo’nalishlaridan bo’lib, har qanday badiiy matnga lingvopoetik jihatdan yondashish o’z ichida matn bog’lanishlarini atroflicha o’rganishni talab etadi va bu jarayonda ijodkoming so’z qo’llash bilan bog’liq o’ziga xos xususiyatlari ham namoyon bo’ladi. A.Lipgartning fikricha. „lingvopoetika” bu filologiyaning bir bo’limi bo’lib, ushbu yo’nalish badiiy matnda qo’llanilgan stilistik bo’yoqdor til birliklari doirasida ularning vazifasi va aniq g’oyaviy -badiiy mazmunni ifodalash va estetik effektni hosil qilishdagi til birliklarining qiyosiy ahamiyatini o’rganadi[2:18-19]. Lingvopoetika - filologiyaning poetik tilni tadqiq etuvchi sohasidir[l:58], Shu asosda fonopoetikada poetik tilning fonetik xususiyatlari tahlil etiladi. Uning shu jihati fonostilistika bilan chegarasini ko’rsatadi. Zero “stilistika - tilshunoslikning turli uslublarini o’rganuvchi sohasi”[5:12], Uslubiyat - til birliklarining uslubiy imkoniyat va xususiyatlari, funksional -uslubiy emotsionalekspressiv bo’yog’i, shuningdek, nutqda til vositalarining maqsadga muvofiq tarzdatanlash va qo’llash haqidagi ta’limotdir. Saida Zunnunova o’zbek adabiyotida o’ziga xos iz qoldirgan iste’dodli shoira. Uning baxtiyor yoshlik, ona vatan, mehnatni tarannum etuvchi “Qizingiz yozdi”(1948), “Yangi she’rlar”(1950), “Gullar vodiysi” (1954), “Qizlarjon”, “Bir yil o’ylari” (1967) she’riy to’plamlari kitobxonlarga tanish. So’zlarga xassoslik, siqiqlik, tabiiylik, yasama-sun’iy obrazlardan qochish Saida Zunnunova she’rlariga xos xususiyat hisoblanadi.

Mazkur maqolada Saida Zunnunova she’rlarida evfoniya alliteratsiya(undosh tovushlar takrori), assonans(unli tovushlar takrori) kabi fonetik vositalaming poetik xususiyatlari va ekspressiv vazifalari tahlilga tortildi. Fonopoetikada evfoniya muhim vazifa bajaradi. Evfoniya, asosan, fonetik vositalar yordamida voqelanadi. Nutqning o’ynoqiligi, xushohangligi ko’p jihatdan uning fonetik shakllanishiga bog’liq. Evfoniyaning asosiy belgisi bo’lgan tovush takrori alliteratsiya va assonans kabi turlarga bo’linadi. Assonans(unli tovushlar takrori)ning shoira poetik maqsadiga ko’ra aktuallashishini quyidagi misollar tahlilida ko’rishimiz mumkin:

O'ksitma, o'zing ham o'ksima erkam,
O'rin o'tmasa ham kelgin bag'rimga.

Istaymanki, avval ishq, ilhom bo 'lib,
Bir bahor misoli qalbingga kirsam.

kabi misralarda 5 o'rinda kelgan **o'** unlisi va 3 marotaba qo'llangan **i** unlilarining takrori assonans hodisasini vujudga keltirgan. Natijada she'rning ohangdorligi, talaffuz ritmikasi yuzaga kelib, she'r ma'nosining kuchayishiga xizmat qilgan. Poetik nutqda alliteratsiya xuddi qofiya singari muhim bir kompozitsion ritrnik vosita sifatida qo'llanadi. Shoira she'rlarida ham ushbu holat yaqqol seziladi. Masalan:

Har narsada nur, viqor,
Hatto tuproq baxtiyor.
Bir-bir bosib beozor,
Ul beozor o 'tdimmi?
Zar sochsa bunchalik quvonmas edim,
Bunchalik bo'lmasdim, baxtli, badavlat.

Ushbu misollarda takror qo'llanib, alliteratsiyani yuzaga chiqargan **b** undoshlari she'rga o'zgacha musiqiy ohang bag'ishlagan. Natijada ifodaning emotsional-ekspressivligi oshib, fonopoetik mukammallik, badiiy izchillik yuzaga kelgan.

Ana shu tinmagan orzu o 'ylarim,
Mehnat, muhabbatim, mehrim haqqiga.
Moboda bittasi sal qolsa ortda,
Bezovta bo 'ladi, buzilar saflar.

Bu misollarda ham ko'rish mumkinki, alliteratsiya hodisasi qo'llanilishi orqali ma'no yanada kuchaygan, Anglashiladiki, mazkur vosita nutqning jozibadorligini ta'minlovchi muhim unsurlardan biri hisoblanadi hamda she'rda muhim badiiyestetik vazifa bajaradi.

Har kuni sarxushman, har kuni shodman,
Chunki men ***insonman, insonman, inson.***

mazkur misolda takrorlami ko'rish mumkin-ki, ular ma'noni ta'kidlashga va she'rga jozibadorlik bag'ishlashga xizmat qilgan. Shoira ijodida bu kabi tinglovchiga kuchli ruhiy ta'sir etuvchi fonopoetik vositalarni ko'plab kuzatish mumkin. Bunday elementlaming qo'llanilishi she'r mazmuniga o'zgacha mazmun yuklab, uning badiiy-estetik va emotsional - ekspressiv vazifalarini oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Григорьев В. П. Поэтика слова. - Москва: Наука, 1979.

2. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики.-М:1999.
3. Saida Zunnunova. She'rlar. - Toshkent.1982.
4.Toshxujayeva Sh. Erkin A 'zam asarlari lingvopoetikasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi. - Farg'ona, 2017.
5. Tursunova O. O'zbek tili fonetik birliklarining poetik imkoniyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoref. -Farg'ona. 2019.
6.Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.- Toshkent.Fan.2007.